

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**ABSALAMOV TOLIB TURABOYEVICH**

**BILINGVAL TA'LIM MUHITIDA "TA'LIMDA AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI" FANINI O'QITISH METODIKASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02- Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent– 2023**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Absalamov Tolib Turaboyevich**

Bilingval ta'lim muhitida "Ta'limda axborot texnologiyalari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish.....3

**Абсаламов Толиб Турабоевич**

Совершенствование методики преподавания предмета "Информационные технологии в образовании" в билингвальной образовательной среде.....21

**Absalamov Tolib Turabayevich**

Improving the methodology of teaching the discipline "Information technologies in education" in a bilingual educational environment.....41

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

**Список опубликованных работ**

**List of publications.....45**

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**ABSALAMOV TOLIB TURABOYEVICH**

**BILINGVAL TA'LIM MUHITIDA "TA'LIMDA AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI" FANINI O'QITISH METODIKASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02- Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent– 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestasiya komissiyasida B2022.1.PhD/Ped2781 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasi ([www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)) hamda «ZiyoNET» axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abdullayeva Barno Sayfutdinovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Karlibayeva Guljaxan Yermekbayevna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Toshtemirov Doniyor Eshbayevich**  
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg'ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy.) Tel.: (+99871) 276-79-11; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-79-11; faks: (+99871) 276-76-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2023-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**Z.N.Mamarajabova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

**R.G. Isyanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, p.f.n., dotsent

**S.S.Bulatov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, p.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahon ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalari fanini bilingval elektron ta'lim muhitida o'qitishning kognitiv texnologiyalari amaliyotga joriy etilmoqda. Xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha yangi ta'lim konsepsiyasida ta'lim – taraqqiyotning asosiy harakatlanuvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetkazuvchi muhim kamolot sifatida e'tirof etilib bilingval virtual ta'lim texnologiyalari, ochiq ta'lim resurslari, bilingval elektron ta'lim muhitini yaratish, internet orqali interfaol ta'lim olish texnologiyalarini takomillashtirish, bilingval o'qitishga moslashuvchi ta'lim tizimlarini ishlab chiqishga doir yirik loyihalarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha strategik miqiyosdagi ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida bilim olishning bilingval integrallashgan ta'lim muhitini yaratish, axborot almashinishning Web – texnologiyalarini takomillashtirish, bilingvalli ta'lim mazmuni va tilni integratsiyalashgan holda o'rganish texnologiyasini rivojlantirish, elektron ta'lim muhitini yaratish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga talabalarning bilingval kompetentligini axborot-kommunikasiya texnologiyalari vositasida rivojlantirish, “Ta'limda axborot texnologiyalari” fanini bilingval elektron ta'lim muhiti asosida o'qitishning metodikasini takomillashtirish bo'yicha ham maqsadli ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'ngi yillarda integratsiyalashgan ta'limga (content and language integrated learning), ya'ni mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'rganish texnologiyasida bilingval shaxsni har tamonlama rivojlantirish modellarini ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga tatbiq etishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. “Oliy ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llashni yangi usul va vositalar yordamida tashkil etish”<sup>1</sup> ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan. Bu o'quv jarayoniga moslashuvchi bilingval elektron ta'lim muhiti asosida adaptiv o'qitish tizimidan foydalanish metodikasini takomillashtirish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” farmonlari, 2022-yil 21-iyundagi PQ-290-son “Nizomiy nomidagi toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”, 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-son “Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/4545884>.

integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorlari hamda faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. Axborotlashgan jamiyatni va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Axborot madaniyatini shakllantirish va ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishda A.A.Abduqodirov, M.M.Aripov, A.I.Ashirova, U.Sh.Begimqulov, R.R.Boqiyev, F.M.Zakirova, M.X.Lutfullayev, M.E.Mamarajabov, L.M.Nabiulina, N.I.Taylaqov, S.K.Tursunov, U.Yu.Yuldashevlar; ijtimoiy - gumanitar fanlarda bilingvallikni qo'llashning nazariy-metodik jihatlarini bo'yicha respublikamizda A.O.Azizov, G.A.Asilova, X.S.Muxitdinova, F.R.Qodirova, J.J.Jalolov, S.A.Misirov, R.T.Tolipova, K.S.Qodirovalar; axborot texnologiyalarini pedagogik, psixologik, lingvistik va bilingvallikning sotsiolingvistik jihatlarini takomillashtirish N.Z.Shayxislamov, A.Nurmonov, K.A.Raximov, A.M.Shofqorov, K.Maxmudovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Hamdo'stlik mamlakatlarida ijtimoiy gumanitar fanlarda bilingvallikni nazariy metodik jihatlarini takomillashtirish N.A.Chalkina, N.A.Rusakova, E.L.Semenyuk, A.Yu.Kvitko, S.M.Olenev, Yu.S.Branovskiy, Yu.S.Zubov, N.A.Slyadneva, R.D.Unaysarova, B.A.Semenovker va I.F.Yarullinlar; lingvistik va bilingvallikni sotsialagik jihatlarini S.S.Kovaleva, K.S.Grigoryeva, L.V.Sherba, L.L.Salexova, L.P.Xalyapina, L.S.Vigotskiylar; B.M.Bogus, A.V.Danilov, V.Dmitriyeva, A.V.Gabdulxakov, R.G.Gasanova, Ye.M.Vereshagin, N.V.Imedadze, T.N.Kuroxtina, F.F.Xarisov, F.G.Yalalov, Yu.A.Tregubovalar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijiy davlatlarda axborot madaniyatini shakllantirish, bilingvallikni qo'llash A.Abid, L.W.Anderson, H.D.Brown, D.R.Krathwohl, M.Siguan, U.F.Makki, D.Marsh, P.Mehisto, P.Coppens, L.Anderson, J.Cummins, D.Coyle, D.R.Krathwohl, Ch.Hopkinson, M.Paradis, S.Pasha, M.Saville-Troike, M.Siguán, W.F.Mackey tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining PZ-2017927124 raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" nomli amaliy loyiha doirasida bajarilgan (2017-2020 yy).

**Tadqiqotning maqsadi** bilingval ta'lim muhitida "Ta'limda axborot texnologiyalari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

oliy ta'limning filologiya yo'nalishlarida "Ta'limda axborot texnologiyalari" fanini bilingval elektron ta'lim muhiti asosida o'qitishning pedagogik imkoniyatlarini tahlil etish;

"Ta'limda axborot texnologiyalari" fanini bilingval elektron ta'lim muhiti asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish;

bilingval ta'lim muhitida "Ta'limda axborot texnologiyalari" fanini o'qitish metodikasini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

elektron ta'lim muhitida o'quv jarayonini "Ta'limda axborot texnologiyalari" fanining samaradorligini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida bilingval ta'lim muhitida "Ta'limda axborot texnologiyalari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish jarayoni bo'lib Toshkent davlat pedagogika universiteti, Navoiy davlat pedagogika instituti va Jizzax davlat pedagogika universitetlarining 152 nafar talabasi ishtirok etgan.

**Tadqiqot predmetini** bilingval ta'lim muhitida "Ta'limda axborot texnologiyalari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish shakli, metodi va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida mavzuga oid pedagogik, psixologik va metodik manbalar, didaktik adabiyotlar, DTS, o'quv reja va dasturlar, o'quv-me'yoriy hujjatlar, darslik va o'quv-metodik adabiyotlarni qiyosiy o'rganish va tahlil qilish, ijtimoiy-pedagogik (kuzatish, suhbat, tashxislash, so'rovnomalar, test), tajriba-sinov, monitoring natijalarini matematik-statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanildi.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

bilingval elektron ta'lim muhitida o'qitishning pedagogik imkoniyatlari lingvistik-kommunikativ, madaniy-estetik va ijodiy-ilmiy faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan verbal muloqotni faollashtirishning kommunikativ o'zagini shakllantirish hamda loyihalash, izchillik, ko'rgazmalilik tamoyillariga ustivorlik berish asosida takomillashtirilgan;

bilingval elektron ta'lim muhitida o'qitish metodikasini rivojlantirish jarayoni o'qituvchi va talaba ijodiy-nutqiy muloqoti amaliyligini oshirish, o'zbek tilida mavjud bo'lmagan tushunchalar semantizatsiyasi, kontseptual va terminologiya apparatini barqaror o'zlashtirish natijadorligini oshirish hamda ko'rgazmali vositalar, sinonimlardan foydalanish, leksik takrorlashlar va til kodini almashtirish operatsiyalarini bajarishga dinamik ustivorlik berish asosida takomillashtirilgan;

bilingval ta'lim muhitida "Ta'limda axborot texnologiyalari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli CLIL vositasida didaktik obyektlarni loyihalashga qaratilgan o'quv texnologik yechimlarnining elektron metodik ta'minoti hamda o'qitishning didaktik maqsadlariga mos ravishda uslubiy-konstruktiv motivatsiyani intensiv shakllantirish asosida takomillashtirilgan;

bilingval elektron ta'lim muhitida talabalar ijodiy faolligini oshirish samaradorligi ikki tilli o'quv internet – resurslaridan maqsadli foydalanish trayektoriyasini ta'lim maqsadlariga mos ravishda modellashtirish, o'quv Web – ilovalar va Wiki-loyahasini yaratish imkonini beruvchi ochiq internet resurslarini oddiydan murakkabga qarab statistik-qiyosiy differentsiallashtirishga intensiv ustivorlik berish asosida takomillashtirilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Tajriba ishlarida bilingvalli ta'lim texnologiyasi va uning elektron ta'lim yordamida bilingvalli talabalar uchun "Ta'limda axborot texnologiyalari" fanini shakllantirishda ilmiy-metodik ta'minoti samaradorligi aniqlangan;

"Ta'limda axborot texnologiyalari" fanini o'qitishda elektron ta'lim muhitini hosil qiluvchi bilingval elektron ta'lim resursini yaratish jarayoni tahlil qilinib, ulardan foydalanish metodikasi takomillashtirilgan;

"Ta'limda axborot texnologiyalari" fanini o'qitishning baholash mezonlari takomillashtirilgan.

"Ta'limda axborot texnologiyalari" fanini o'qitishning baholash mezonlari takomillashtirilgan, baholash ko'rsatkichlarida foydalanilgan dasturi ta'minot yaratildi va bu dasturga adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentli tomonidan berilgan Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturning rasmiy ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi 2022-yil №DGU 14562 sonli guvohnoma olingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotda qo'llanilgan yondoshuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy qilinganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan bilan izohlanadi.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati "Ta'limda axborot texnologiyalari" fanining mazmuni, o'qitish metodlarini, modellari va texnologiyalarini rivojlantirish hamda pedagogik jarayonlarni loyihalash va bilingvalli kadrlarni tayyorlash jihatlarini takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishchi dasturlarini tayyorlash, o'quv jarayonida qo'llanadigan filologik faoliyatni tashkil etishga yo'naltirilgan elektron axborot-ta'lim resursining pedagogik-psixologik, texnik, didaktik talablari, tarkibiy qismlari, yaratish bosqichlari, talabalarning mustaqil faoliyat olib borishi, bilingvallik faoliyatda ijodiy yondashish bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Talabalarga bilingvalli ta'lim muhitida "Ta'limda axborot texnologiyalari" fanini o'qitishning metodik ta'minotini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

bilingval elektron ta'lim muhitida o'qitishning pedagogik imkoniyatlari lingvistik-kommunikativ, madaniy-estetik va ijodiy-ilmiy faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan verbal muloqotni faollashtirishning kommunikativ o'zagini shakllantirish hamda loyihalash, izchillik, ko'rgazmalilik tamoyillariga ustivorlik berish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Informatika o'qitish metodikasi" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 25-dekabrda 538-son buyrug'i asosida berilgan 538-143 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada "Ta'limda axborot texnologiyalari" darslarini integratsiyalashda o'qituvchi faoliyatini integratsiyalashga doir ta'limiy modullarni joriy etish samaradorligini oshirish imkoni kengaytirilgan;

bilingval elektron ta'lim muhitida o'qitish metodikasini rivojlantirish jarayoni o'qituvchi va talaba ijodiy-nutqiy muloqoti amaliyligini oshirish, o'zbek tilida mavjud bo'lmagan tushunchalar semantizatsiyasi, kontseptual va terminologiya apparatini

barqaror o'zlashtirish natijadorligini oshirish hamda ko'rgazmali vositalar, sinonimlardan foydalanish, leksik takrorlashlar va til kodini almashtirish operatsiyalarini bajarishga dinamik ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan PZ-20170923121 raqamli "Shaxs tarbiyasida milliy xususiyatlarni tadqiq etishning metodologik asoslarini takomillashtirish" nomli grant doirasida belgilangan vazifalarni amalda bajarishda foydalanilgan. (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2021-yil 22-dekabrda 02-07-4162 sonli xatiga asosan). Natijada, fanga oid xorijiy tajribalarni tahlil qilish imkoniyati oshirilgan;

bilingval ta'lim muhitida "Ta'limda axborot texnologiyalari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli CLIL vositasida didaktik obyektlarni loyihalashga qaratilgan o'quv texnologik yechimlarning elektron metodik ta'minoti hamda o'qitishning didaktik maqsadlariga mos ravishda uslubiy-konstruktiv motivatsiyani intensiv shakllantirish asosida takomillashtirishga oid takliflar ITD 17-069 raqamli "Oliy ta'lim muassasalarining yagona axborot elektron tizimini yaratish va joriy etish" nomli grant doirasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan. Natijada, bilingval ta'limda integratsiyalashgan texnologiyalarga oid tajribalarni o'rganishda yuqori samaradorlikka ega zamonaviy uskunalardan foydalanish imkoniyati yaratilgan;

bilingval elektron ta'lim muhitida talabalar ijodiy faolligini oshirish samaradorligi ikki tilli o'quv internet – resurslaridan maqsadli foydalanish trayektoriyasini ta'lim maqsadlariga mos ravishda modellashtirish, o'quv Web – ilovalar va Wiki-loyihasini yaratish imkonini beruvchi ochiq internet resurslarni oddiydan murakkabga qarab statistik-qiyosiy differentsiallashga intensiv ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Informatika o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 25-dekabrda 538-son buyrug'i asosida berilgan 538-143 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada "Ta'limda axborot texnologiyalari" darslarini integratsiyalash samaradorligini oshirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprotasiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr ettirilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 128 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning

ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar shuningdek, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Bilingval ta'lim muhitida “Ta'limda axborot texnologiyalari” fanini o'qitishning nazariy jihatlar”** deb nomlangan birinchi bobida bilingval ta'lim muhitida talabalarning elektron platformalar didaktik imkoniyatlaridan foydalanish tamoyillari, shaxsiy axborot madaniyatini rivojlantirishning umumiy omillari hamda kasbiy sifatlarini differensiallashgan ta'lim texnologiyalari vositasida takomillashtirish aspektlari tajribasi tahlili bayon etilgan.

Kryuger-Potratsning fikricha, “bilingval ta'lim, ikki madaniyatli tabiati orqali, o'quvchilarga butun hayot etnik, lingvistik, diniy va ijtimoiy xilma-xillik bilan belgilanadigan jamiyatda harakat qilishda yordam berishga qaratilgan va bu bog'liqlik kelajakda yanada aniqroq ifoda etiladi. Bu xilma-xillikni qanday boshqarishni va unda o'z o'rnini topishni o'rgatishi kerak. Bundan tashqari, bilingval ta'lim xorijiy madaniyatni bilish va o'z madaniyati tizimini tahlil qilish bilan birga rag'batlantiradi”. Ta'lim olishning asosiy usuli – bu o'rganish va o'z-o'zini tarbiyalashdir, shuning uchun bilingval ta'limni bilingvalli ta'limning natijasi deb hisoblash kerak. O'zbekiston Respublikasining ko'p millatli hududlaridan biri bo'lib, unda turli millat va madaniyat vakillari yashaydi. 2021-yilgi O'zbekiston doimiy aholisining etnik tarkibiga oid statistik ma'lumotlariga ko'ra, eng yirik etnik guruhlar o'zbek, tojik, qozoq, qoraqalpoq va rus millatiga mansub kishilardan iborat. Jumladan, Respublika aholisining aksariyat qismini o'zbeklar (84,4%), rus va slavyanlar esa 6% ni tashkil etib, ayrim hududlarda aholi bilingvlar (o'zbek-rus va rus-o'zbek) ya'ni tabiiy ikki tili muhitda yashaydilar. O'zbekistonning rivojlanish tarixi mintaqa aholisi faoliyatining turli sohalarida o'zbek va rus tillaridan foydalanishni o'rganish imkonini beradi. O'tgan asr mobaynida respublika hududida ikki etnik guruh - ruslar va o'zbeklar faol o'zaro hamkorlik qilib kelmoqdalar. Bu o'zaro aloqalar mintaqada ikki til, rus va o'zbek tillaridan foydalanishga olib keldi.

XX asrning 90-yillaridan boshlab o'zbek tilining ilmiy, ta'lim va IT sohalaridagi funksiyalarini takomillashtirishga qaratilgan jarayon yuzaga keldi. O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalarini rivojlantirish va ularni faoliyatning turli sohalarida amalga oshirish ko'lamini kengaytirishning tashabbuskorlaridan biridir. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni axborot texnologiyalari bo'yicha o'qitishda alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti negizida universitetning AKT sohasida mutaxassislar tayyorlaydigan beshta filiali faoliyat ko'rsatmoqda. Biroq, o'zbek tilining IT sohasida ishlatilishiga to'sqinlik qiluvchi bir qator omillar mavjud. Axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish katta inson resurslarini talab qiladi, shuning uchun axborot yechimlari bozoridagi (ham ichki, ham xalqaro) o'zgarishlarning asosiy qismini yirik kompaniyalar (Microsoft, IBM, Google, Apple va boshqalar) egallaydi. Tijorat manfaatlari kompaniyalarni ishlab chiqarish va texnologiyalarni rivojlantirish jarayonini optimallashtirishga majbur qilib katta maqsadli auditoriyaga e'tibor qaratadi. Optimallashtirishdagi eng yorqin jihat dasturiy ta'minotlarning mahalliyashtirilgan versiyalarini ishlab chiqish hisoblanadi. Bu murakkab bosqich bo'lib, unda dastur interfeysining barcha elementlari boshqa tilga tarjima qilinadi.

Ushbu jarayon juda ko'p vaqtni talab qiladi, chunki, dasturiy ta'minot faqat keng ishlatiladigan tillar uchun mahalliyashtirilgan bo'ladi. Eng ommabop dasturiy mahsulotlar mahalliyashtirilgan rus tilidagi versiyasiga ega, ammo o'zbek tiliga dasturiy mahalliyashtirish ko'lami kamtarona.

W3Techs tadqiqotlariga ko'ra, 2021-yilda Internetdagi rus tilidagi manbalar soni dunyoda ikkinchi o'rinda turadi va birinchi ko'rsatkich bo'yicha faqat ingliz tilidagi manbalarga to'g'ri keladi (Internet-resurslarning taxminan 7% rus tilida, 63% - ingliz tilida). Foydalanuvchilar soni bo'yicha rus tili birinchi o'ntalikka kiradi, bu rus tilidagi Internetning rus segmentida ustunligini tasdiqlaydi (ya'ni ".ru", ".su", ".rf" domen zonalarida). Axborotga kirish shaxsning bilingvallilik darajasiga bog'liq bo'lgan holat mavjud. O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi boshqa millat vakillari rus tilidagi Internet resurslari bilan ishlay olishlari uchun ular bilingvalli vakolatga ega bo'lishlari, ya'ni ikki tilda gaplasha olishlari va axborot makonida foydalana olishlari kerak.

Dissertatsiyada bilingvallilik jamiyatning xalqaro va millatlararo o'zaro aloqalari va axborotlashuvi jarayonlariga bog'liqligi, millatlararo axborot-kommunikasiya almashinuvi vositasi o'zligidan voz kechmagan holda yetakchi madaniyatga moslashishning muhim omillari, o'zaro til va o'zaro madaniy muloqotga asoslangan axborot almashish usullari, o'zaro madaniy aloqa va axborot faoliyati deb tan olingan.

O'quv amaliyotida tabiiy bilingvallilik sharoitida kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ikkita asosiy o'qitish modeli mavjud. Birinchi model - to'liq immersiya, ya'ni butunlay ikkinchi (masalan: rus) tilda o'qitishga o'tish. Ikkinchi model - o'qitishning dastlabki bosqichida (milliy va rus tillarida) ikki til qo'llanilib, rus tiliga o'tish asta-sekin davom etadigan o'tish modeli.

S.A.Xashimova talabalarni pedagogika institutlarida bilingvalli asosda adaptiv o'qitish tizimidan foydalanishni taklif qiladi. Taklif etilayotgan tizimning maqsadi oliy ta'limda bilingvalli talabalarni o'quv faoliyatiga yuqori darajada moslashuvchanlikka erishish. Muallif "bilingvalli asosda adaptiv ta'lim" tushunchasini kiritadi, ya'ni "shaxsiy rivojlanishning yuqori darajasiga erishish va yangi (chet tili) ta'lim muhitida ta'lim faoliyatiga moslashishga erishish uchun talabalar shaxsining salohiyatidan foydalangan holda adaptiv moslashish strategiyasiga asoslangan fanni o'rgatishni ta'kidlab o'tadi. Shaxs salohiyatining tarkibiy qismi bilingvallilik bo'lib, uning semantizatsiyasi orqali o'rganilayotgan fanning konseptual va terminologik apparatini bilingvalli asosda o'zlashtirish imkonini beradi. Moslashuv treningi davridagi asosiy qiyinchilik – bu fanning konseptual va terminologik apparatini ona tilida o'zlashtirishda til to'sig'idir.

Hozirgi kunda Yevropa ta'lim muassasalari integratsiyalashgan predmet-til yondoshuvini (Content and Language Integrating) keng qo'llamoqda, uning paydo bo'lishi dunyoda chet tili ta'limini rivojlantirish uchun globallashtirish jarayonlari va obyektiv shart-sharoitlar taqozo etmoqda. Bu ta'limiy yondoshuv bilingvalli ta'lim mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'rganish texnologiyasining asosini tashkil etdi.

D.Marshning fikriga ko'ra, subyektlarni integratsiyalashgan o'rganish konsepsiyasi haqida ushbu fanlarning ayrim fanlari yoki ba'zi bir mavzular chet tilida


o'rganilgan va shu bilan birga ikkita maqsad mavjud bo'lgan hollarda gapirish mumkin: ma'lum bir o'quv fanining mazmunini o'rganish va bir vaqtning o'zida chet tilini o'rganish. Bugungi kunda zamonaviy Yevropa ilmiy-metodik adabiyotlarida mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'rganishning 40 dan ortiq ta'riflari qo'llanilib, uning keng talqini va turli tushunchalarini ko'rsatib beradi. Masalan, Yevropa komissiyasi integratsiyalashgan predmet-til yondashuvini - CLIL ni chet tilini o'rganish vositasi sifatida harakat qiladigan tushuncha deb hisoblaydi. Ko'pchilik tadqiqotchilar o'quv jarayonida predmet-til integratsiyasini amalga oshirishda ikki asosiy yo'nalishni ajratib ko'rsatadilar: content-driven (C) – o'quv jarayoni, avvalo, fan mazmunini o'rganishga qaratilgan; language-driven (L) – chet tili birliklarini o'rganishga qaratilgan. Ushbu bo'linish shartli amalga oshiriladi, u turli xil bilingval ta'lim sharoitida o'rganish yo'nalishini aniqlash uchun ishlatiladi va ikki tilli o'qitish modellarini yuqorida berilgan bilingval o'qitishni amalga oshirishning ikkita o'ta holati (C va L) o'rtasida gorizontaal o'qda joylashtirishga imkon beradi. Shubhasiz, o'quv rejalari va o'quv dasturlarining maqsad va vazifalari fanni o'rganish emas, balki uni o'qitish sharoitida shakllantiriladi va ko'rib chiqiladi. Mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'rganish sharoitida integratsiyalashgan predmet va til o'rganishni amalga oshirishda o'quv materialining qanday taqdim etilishi muhim omil hisoblanadi.

Xorijiy tillarni ko'pincha mavzu va tilni kompleks o'rganish jarayonida qo'llaniladi. O'qishning dastlabki bosqichlarida integratsiyalashgan predmet-til yondashuvi texnologiyasidan foydalanish tendensiyasi mavjud. Bilingval ta'lim sohasidagi tadqiqotchilar integratsiyalashgan predmet-til yondashuvi metodikasining yuqori pedagogik salohiyatini ta'kidlaydilar, shuning uchun o'zbek-rus tili ikki tilli sharoitida bilingval talabalarining "Ta'limdagi axborot texnologiyalari" fanini shakllantirishda mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'rganishning ikki tilli ta'limi Yevropa texnologiyasidan foydalanildi.

Dissertatsiyaning **"Bilingval ta'lim muhitida "Ta'limda axborot texnologiyalari" fanini o'qitish metodikasi"** deb nomlangan ikkinchi bobida bilingval ta'lim muhitida elektron resurslarini yaratish texnologiyalari, talabalarining kasbiy sifatlarini rivojlantirish modeli asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish hamda Ta'limda axborot texnologiyalari fani amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida [www.bilingualedu.uz](http://www.bilingualedu.uz) elektron ta'lim platformasidan foydalanish metodikasini takomillashtirish masalasi ilmiy talqin etiladi. M.A.Choshanovning fikriga ko'ra, onlayn ta'lim xizmatlari ko'payib borayotganligi sababli, multimediya yordamida real vaqt rejimida tarmoq orqali onlayn kurslarni loyihalashtirish va turli fanlarni o'qitishga qodir bo'lgan o'qituvchilarni tayyorlash zarurati paydo bo'ldi. Ko'pgina mahalliy va xorijiy yirik universitetlar onlayn kurslarni loyihalashtirish va o'qitish uchun yangi instrumental tizimlarni ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus dasturlar yaratmoqdalar. Multimedia ma'ruzalari va onlayn kurslari banklari, elektron darsliklar to'plamlari, ixtisoslashtirilgan elektron kutubxonalar va boshqalar yaratilmoqda. Raqamli davrning pedagog-muhandis-o'qituvchisi – didaktik obyektlarni (o'quv materiallari, modullar va kurslar) maqsadli tadqiq etish, loyihalash va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan bilimlar to'plamiga ega bo'ladi. Didaktik muhandislikning asosiy vazifalari - bu o'quv texnologik yechimlarini tahlil qilish va loyihalashtirish. Ushbu fan

doirasida samarali o‘quv muhitini yaratish maqsadida tadqiqot natijalari (masalan, o‘qitish texnologiyalari) yo‘naltirilgan o‘quv mahsulotlarini tadbiq etish, tadqiqot qilish va loyihalash, shuningdek, ishlab chiqilgan ta’lim mahsulotlarini, jarayonlari va vaziyatlarini tahlil qilishda ilmiy uslub va konstruktiv fikrlashni qo‘llash kabi vazifalar ko‘rib chiqiladi.

Ta’limning samarali muhitini yaratish uchun mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o‘rganish texnologiyasi asosida bilingval ta’limni elektron metodik tizimini ishlab chiqishda M.Choshanovning tavsiyalariga asoslandik(1-rasmga qarang).



**1-rasm. Didaktik muxitning asosiy elementlari**

Ushbu jarayonda uchta kichik bosqichni o‘z ichiga olgan o‘quv mahsulotlarini yaratish bosqichlari: o‘quv mahsulotlarini tahlil qilish; ta’lim mahsulotlarini ishlab chiqish (mantiqiy tatbiq yetish); o‘quv mahsulotlarini loyihalash (tatbiq yetish amaliyoti).


Yangi avlod oliy ta’limining davlat ta’lim standartida o‘qitishning barcha bosqichlarida o‘qituvchi va talabaning o‘zaro munosabatlari ustun bo‘lgan ta’lim jarayonini tashkil etishga qaratilgan yondoshuviga yo‘naltiradi. Bunday sharoitda talaba ta’lim-tarbiya jarayonini birgalikda joriy etuvchi, o‘qituvchining yordamchisi va hamkasbi rolini kuchaytirishga harakat qiladi. Ta’lim jarayonini tashkil etish tamoyillari asta-sekin o‘zgarib, dinamik moslashtirilgan ta’limni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. Masofaviy ta’limni intensiv qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan biri bu aralash ta’lim hisoblanadi (angl. «blended learning»). Kunduzgi va elektron ta’lim usullari va texnologiyalaridan foydalanish bir vaqtning o‘zida ushbu ta’lim shakllaridan foydalanishga imkon beradi. An’anaviy o‘qitish shakllari talaba va o‘qituvchi o‘rtasida bevosita shaxsiy muloqotga asoslanadi. Raqamli ta’lim va multimediya vositalari axborot yetkazib berishning turli shakllarini ta’minlaydi. Raqamli va an’anaviy yechimlardan birgalikda foydalanish, iqtisodiy jihatdan samarali va qulay ta’lim muhitini rivojlantirish, o‘quv jarayonini interfaol, shaxsga yo‘naltirilgan va jarayonning barcha ishtirokchilari uchun moslashtirishga imkon beradi.

Dissertatsiyada texnologik platformani tanlash mezonlariga asosan texnologik platforma yaratilib o‘qituvchiga o‘quv materialini ishlab chiqish uchun boy funksiyalarni ta’minlashi, turli formatlar va axborot ta’minoti turlarini qo‘llab-quvvatlashi, texnologiya platformasi o‘quv materialini loyihalash uchun qulaylikni

ta'minlashi, ya'ni o'quv materialini yaratish o'qituvchidan maxsus texnik ko'nikmalarni talab qilmasligi aniqlangan.

Turli xil funksiyalarga ega bo'lgan o'zining onlayn ta'lim resursini yaratish maqsadida, ularga tarmoq uskunalari va dasturiy ta'minotini ijaraga olish va sozlash, dasturlash tillari yordamida resurslarin loyihalash, resurs uchun dizayn maketini yaratish va foydalanuvchini qo'llab-quvvatlash kerak bo'ladi. Shuning uchun umumjahon platformalarida Internet resurslarini yaratish, funkcionallik va foydalanish qulayligi o'rtasida bog'liqlikni yaratish yanada maqsadga muvofiqdir. Bu yechim, bizningcha, Web 2.0 resurslarini tanlashdir. Web 2.0 – bu Internet-resurs tarkibidagi ma'lumotlar yaratish usuli bo'lib, unda Internet-resursda axborotlar ushbu resurs foydalanuvchilari tomonidan yaratiladi, to'ldiriladi va tahrir qilinadi. Bu holda Internet resurslarining moderatorlari va ma'murlari faqat xizmat va texnik platformani taqdim etadilar, ammo uni tarkib bilan to'ldirish jarayonida ishtirok etmaydilar. Web 2.0 resurslari nafaqat kundalik hayotda, balki ta'limda ham mustahkam o'rnashgan. Tim O'Reilly ning fikriga ko'ra, “Web 2.0 – tarmoqlararo o'zaro aloqalarni hisobga olgan holda, ulardan ko'proq foydalanadigan tizimlarni loyihalashtirishdan metodidir.” “Uncovering CLIL” kitobi muallifi Piter Mexisto, integratsiyalashgan Web 2.0 o'quv qo'llanmalariga tayanish lozim bo'lgan asosiy prinsiplarni ta'kidlab o'tdi: o'quv natijalarini talabaga ko'rinadigan qilish; talabaning akademik tilini (CALP) tizimli ravishda rivojlantirish; o'quv ko'nikmalarini rivojlantirishni rag'batlantirish va o'z-o'ziga ishonishni rivojlantirish; o'z-o'zini baholash, bajarilgan ishlar uchun baholash va treningda muvaffaqiyatga erishish; bilimni rivojlantirish va talabalarning ortiqcha yuklanishning yo'qligi bilan xarakterlanadigan “xavfsiz ta'lim muhitini” (safe learning environment) yaratishga yordam berish; hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga hissa qo'shish; nafaqat moslashtirilgan, balki autentli matnlarni ham o'zlashtirish; yuqori darajali fikrlash qobiliyatini rivojlantirish; talabalar ikkinchi tilni o'rganishda bilim va lingvistik qiyinchiliklarga duch kelmasligini ta'minlash uchun qo'llab-quvvatlash texnologiyasidan (“scaffolding”) foydalanish; o'rganishni shaxsan mazmunli jarayonga aylantirish zaruriyati belgilangan.

Turli xil Web 2.0 xizmatlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, viki-loyihalar, interaktiv topshiriq konstruktorelari va integratsiyalashish uchun maxsus yaratilgan xizmatlar yuqoridagi talablarga to'liq javob beradi. Ushbu resursdan rus va o'zbek tillari orqali “Ta'limda axborot texnologiyalari” fani bo'yicha mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'rganish texnologiyasi asosida bilingval ta'limni elektron qo'llab-quvvatlash tizimini ishlab chiqishda foydalanildi. Bilingval-talabalar uchun Ta'limda axborot texnologiyalari yordamida kasbiy kompetentli mutaxassis sifatida tayyorlash modeli takomillashtirilgan (2-rasmga qarang).



**2-rasm. Talabalarni axborot-kommunikasiya tenologiyalari yordamida kasbiy kompetentli mutaxassis sifatida tayyorlash modeli**

